



**OSIYO  
TEKNOLOGIYALAR  
UNIVERSITETI**



**IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT**

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal



**№6 - MAXSUS SON**



**74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982**





## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

### Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

### Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

### Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 153 sahifa.*

*E'lon qilishga 2025-yil 1-iyunda ruxsat etildi.*

### Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari  
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi  
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

- Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Ochilov Farkhod**, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

## Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlal Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi

## Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlal Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilkhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Khusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Rakhimovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

Yashil iqtisodiyotning mamlakat makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'siri.....	10
<b>Raxmonov Lochin To'xtamishovich</b>	
Orol dengizi mintaqasida cho'llanishni bartaraf etishning barqaror usuli: tabiiy ofat turizmi platformasidan foydalanish.....	14
<b>Axunjonov Umidjon Mahamadumarovich</b>	
Specific tasks of effective information and communication technologies management in the digital economy.....	23
<b>Saatova Lolakhon Ergashevna</b>	
Chuqur o'rganishga asoslangan moliyaviy firibgarlikni aniqlash uchun yondashuvlar.....	27
<b>Normamatov Xayriddin Mengniyevich</b>	
AI va big data yordamida sanoat korxonalarida moliyaviy monitoring va budget nazoratini avtomatlashtirish.....	37
<b>To'qliyev Abdirauf Bahodir o'g'li</b>	
Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalarning ro'li.....	44
<b>Ismatov Zokir Xuvaytovich</b>	
Tijorat banklari moliyaviy boshqarish tizimi samaradorligini takomillashtirish strategiyasi.....	48
<b>Kadirov Lutfullo Xalimovich, Elboboyev Hamid Fozil O'g'li</b>	
Ta'lim jarayonini 3d texnologiyalar asosida tashkil qilish va rivojlantirish bosqichlari.....	52
<b>Xushbaqov Eshpo'lat Alisherovich, Axmedova Asal Azimjon qizi</b>	
Biosignallarni qayta ishlashda su'niy intellektga asoslangan bashoratlash.....	57
<b>Qarshiyeva Jamila Yashnar qizi</b>	
Shamol dvigatellaridan qurg'oqchil hududlarda foydalanish.....	60
<b>Samadiy Xusrov Abdusalimzoda</b>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimedial ta'lim jarayonini tashkil etish imkoniyatlari.....	65
<b>Sodiqova Umida Uchqun qizi</b>	
Совершенство и внедрение в практику методики когнитивного моделирования, направленной на решение педагогических задач учащихся с помощью современных информационных технологий (ИИ, VR, тренажеры, интеллектуальные системы).....	72
<b>Турсунова Севара Юсуф кизи</b>	
Yashil iqtisodiyot va uni barqaror rivojlantirish.....	78
<b>Anvarjon Barnoyev</b>	
Modern Mechanisms for Improving the Quality of Financial Control.....	81
<b>Umirzoq Rakhmonov</b>	
Zamonaviy o'qitish strategiyasi va metodlari: dasturlashni o'rganish uchun muhitlar.....	83
<b>Mamatova Shirin Faxriyevna, Normamatov Xayriddin Mengniyevich</b>	
Raqamli iqtisodiyotning inklyuziv rivojlanishga ta'siri: o'zbekiston misolida.....	92
<b>Saydali Murodullayev</b>	
O'zbekiston universitetlarini barqaror rivojlantirish bo'yicha xalqaro dasturlar va hamkorlik.....	98
<b>Berdiyeva Gulandon Sa'dullayevna</b>	
Образование в цифровую эпоху: возможности модели «перевернутый класс».....	101
<b>Мирзаев Сунмас Амирович</b>	
Pedagogik mahoratni oshirishda sun'iy intellektni texnologiyalarini qo'llash orqali ta'lim jarayonini takomillashtiradigan platforma ishlab chiqish.....	105
<b>Salomov Shokirjon Jalilovich, Normamatov Xayriddin Mengniyevich</b>	
Algorithms and software for automatic spelling and grammatical editing of uzbek words.....	114
<b>Daminov Sunatullo Furqat ugli, Eshkarayeva Narkhol G'uzarovna, Boymurodov Farrukh Farkhod ugli</b>	
Innovatsion ta'lim muhitini yaratish orqali ta'lim sifatini oshirish.....	120
<b>Mirzayeva Nilufar Fozilovna</b>	
Kompyuter fanini o'quvchilarning loyihalarni o'qitish jarayonida soft ko'naklarni o'rnatish.....	124
<b>Boboyev Shavkat To'rayevich, Normamatov Xayriddin Mengniyevich</b>	



Kompyuter arxitekturasini o'rganishni takomillashtirishda mobil o'yinli metod dasturlaridan foydalanish.....	135
<b>Muxammadiyeva Nargiza Boxodir qizi, Normamatov Xayriddin Mengniyevich</b>	
Yosh dasturchilarning skratch dasturlash tili ko'nikmalariga elektron ta'lim platformasidan foydalanish bo'yicha dasturlash ko'nikmalariga ta'siri va dasturlashni o'rgatishga munosabat.....	143
<b>Turdiyeva Umida Elmirzayevna, Normamatov Xayriddin Mengniyevich</b>	



# TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY BOSHQARISH TIZIMI SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYASI

**Kadirov Lutfullo Xalimovich**

Osiyo texnologiyalar universiteti katta o'qituvchisi

**Elboboyev Hamid Fozil O'g'li**

talaba

E-mail: [L.Qodirov@mail.ru](mailto:L.Qodirov@mail.ru)

ORCID: 0009-0006-1630-8220

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tijorat banklarining moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirishga doir strategiyalar tahlil qilinadi. Jumladan, raqamli transformatsiya, sun'iy intellektdan foydalanish, integratsiyalashgan risklarni boshqarish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi zamonaviy yondashuvlar ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda O'zbekiston bank tizimi misolida ilg'or xorijiy tajribalar bilan solishtirma tahlillar o'tkazilgan.

**Kalit so'zlar:** tijorat banklari, moliyaviy boshqaruv, strategiya, sun'iy intellekt, risklarni boshqarish, raqamli transformatsiya, progressiv bank biznesi, bank aktivlari, kredit tashkilotlari, bank infratuzilmasi.

**Abstract:** This article examines strategies for improving the financial management system of commercial banks. It particularly focuses on digital transformation, the use of artificial intelligence, integrated risk management, and modern approaches to ensuring financial stability. The study presents a comparative analysis of advanced international practices based on the example of Uzbekistan's banking system.

**Key words:** commercial banks, financial management, strategy, artificial intelligence, risk management, digital transformation, progressive banking, banking assets, credit institutions, banking infrastructure.

**Аннотация:** В статье рассматриваются стратегии совершенствования системы финансового управления коммерческих банков. В частности, анализируются цифровая трансформация, использование искусственного интеллекта, интегрированное управление рисками и современные подходы к обеспечению финансовой устойчивости. В исследовании представлен сравнительный анализ передового зарубежного опыта на примере банковской системы Узбекистана.

**Ключевые слова:** коммерческие банки, финансовый менеджмент, стратегия, искусственный интеллект, управление рисками, цифровая трансформация, прогрессивный банкинг, банковские активы, кредитные организации, банковская инфраструктура.

## KIRISH

Tijorat banklari mamlakat moliyaviy tizimining asosi bo'lib, iqtisodiy barqarorlik va investitsion muhitga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Moliyaviy boshqaruv tizimining samaradorligi esa bankning rentabelligi, likvidligi va raqobatbardoshligining asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda moliyaviy texnologiyalar taraqqiyoti, mijozlar talab va ehtiyojlarining o'zgarishi, shuningdek, bozor xavf-xatarlarining ortib borishi banklar oldiga yangicha yondashuvlar asosida boshqaruv tizimini qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda.

Hozirgi zamonaviy iqtisodiyotda barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyati o'zaro chambarchas bog'liqdir. Iqtisodiyotning real sektori korxonalari boshqa tashkilotlar, xomashyo yetkazib beruvchilar, mijozlar, investorlar va kreditorlar bilan moliyaviy munosabatlarni amalga oshirishda doim bank xizmatlaridan foydalanadilar. O'z navbatida, tijorat banklari uchun korxonalar asosiy mijozlar, qarz oluvchilar va yirik omonatchilar hisoblanadi. Tijorat banklari va korxonalar o'rtasidagi hamkorlik zarur va o'zaro manfaatlidir. Biroq milliy iqtisodiyotdagi holat tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda banklar va korxonalar integratsiyalashuv salohiyatidan to'liq foydalanilmagan, jahon amaliyotida esa ularning hamkorlik shakllari va vositalari hali to'liq joriy etilmagan.



Mamlakatimiz qonunchiligiga muvofiq, tijorat banklari korxonalariga quyidagi operatsiyalarni amalga oshiradilar: jismoniy va yuridik shaxslarning bank hisobvaraqlarini ochish va yuritish; jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan tuzilgan shartnomalar asosida mulkni ishonchli boshqarish; chet el valyutasi bilan naqd va naqd pulsiz operatsiyalarni amalga oshirish; inkasso va kassa xizmatlari ko'rsatish; depozitlar bo'yicha mablag'larni jalb qilish; uchinchi shaxslardan pul majburiyatlarining bajarilishini talab qilish huquqini olish (faktoring); mijoz bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq qimmatli qog'ozlarni boshqarish; hujjatlar yoki qimmatbaho narsalarni saqlash uchun maxsus binolar yoki ular ichidagi seyflarni ijaraga berish; bank kartalarini chiqarish va ularni qayta ishlash, boshqa tashkilotlar, shu jumladan boshqa moliya institutlari bilan hamkorlikda bank kartalariga xizmat ko'rsatish va boshqa xizmatlar [1].

Moliyaviy boshqaruv nafaqat hisob-kitoblarni yuritish, balki bank kapitalining optimal tuzilmasini shakllantirish, aktiv va passivlarni muvozanatlashtirish, rentabellik va likvidlikni ta'minlash, shuningdek, risklarni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqishni ham o'z ichiga oladi.

Xalq xo'jaligida turli mulkchilik shakllariga mansub bo'lgan korxonalar va firmalar mavjud bo'lib, ular doimo bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Korxonalar va tashkilotlar o'zaro manfaatli savdo aloqalarini o'rnatganligi sababli ular o'rtasidagi hisob-kitoblarni orqali mazkur munosabatlar tartibga solinadi. Ushbu hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun maxsus tizim mavjud bo'lishi lozim. Agar bitta bank ushbu hisob-kitoblarga xizmat ko'rsatsa, to'lovlar tez va qulay tarzda amalga oshiriladi, ya'ni hisob-kitoblar bir bank ichida bajariladi va ma'lum summa bir korxonalar hisobvarag'idan boshqasiga o'tkaziladi. Ammo agar firmalar turli bank xizmatlaridan foydalansalar, u holda to'lovni bir bankdan ikkinchisiga o'tkazish uchun maxsus to'lov tizimidan foydalanish zarur bo'ladi. Bunday to'lov tizimi arzon, ishonchli va xavfsiz bo'lishi kerak.

Tijorat banklarida moliyaviy boshqaruvni takomillashtirishda sun'iy intellekt (AI) texnologiyalarining qo'llanilishi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Quyidagilar asosiy foydali yo'nalishlar hisoblanadi:

- AI asosida risklarni modellashtirish;
- Kreditga layoqatlilikni baholashda katta hajmdagi ma'lumotlarni (big data) tahlil qilish;
- Operatsion xarajatlarni avtomatlashtirish orqali kamaytirish;
- Chatbotlar yordamida mijozlar bilan interaktiv aloqa o'rnatish.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy iqtisodchi olimlar – O. A. Bogdankevich [2], S. L. Ermakov, Yu. N. Yudenkov [3], A. M. Tavasiev, V. D. Mexryakov, O. I. Larina [4], A. A. Volkov [5], A. I. Goncharov, M. V. Goncharova va boshqalar tijorat banklarining moliyaviy boshqaruv tizimini tashkil etish va uning samaradorligini oshirish bo'yicha keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar olib borganlar [6].

Mamlakatimiz iqtisodchilari – L. Qodirov [7], S. Norqobilov, X. Dadaboyeva, U. Jo'rayev [8], M. U. Ahmedov [9] o'z tadqiqotlarida tijorat banklarining moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirishga doir kompleks tashkiliy asoslar va mexanizmlarni shakllantirish yo'nalishida keng ko'lamli ilmiy izlanishlar olib borganlar.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida induksiya va deduksiya, tizimli tahlil, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish, mantiqiy tahlil hamda mantiqiy abstraksiya usullaridan keng foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bank – valyuta va qimmatli qog'ozlar bilan turli operatsiyalarni amalga oshiradigan, moliyaviy, yuridik hamda jismoniy xizmatlar ko'rsatadigan moliya-kredit tashkiloti hisoblanadi. Bank tizimi bugungi kunda bozor iqtisodiyotining eng muhim va ajralmas tuzilmalaridan biridir. Banklar faoliyati tarixan tovar ishlab chiqarish va aylanmasi bilan chambarchas bog'liq holda rivojlangan.

O'zbekiston bank tizimi ikki pog'onali bo'lib, uning yuqori bo'g'ini – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, quyi bo'g'ini esa tijorat banklari va mikrokredit tashkilotlari tomonidan ifodalanadi. Bugungi kunda O'zbekiston bank tizimi barqaror faoliyat yuritib, xalqaro standartlarga moslashmoqda. So'nggi yillarda kreditlash tartibining soddalashtirilishi va yillik foiz stavkalarining pasaytirilishi tadbirkorlar va xorijiy investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratmoqda.

Moliya sohasini izchil isloh qilish jarayonida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilib, bank faoliyatini takomillashtirish va sohada raqobat muhitini mustahkamlash uchun zarur huquqiy asoslar yaratildi. Jumladan, xalqaro standartlarga mos keladigan va moliya sektoriga xorijiy investitsiyalarni jalb etishga xizmat qiluvchi "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida", "Banklar va bank faoliyati to'g'risida", "Valyutani tartibga solish to'g'risida" hamda "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi.



Bank tizimidagi risklar – kredit, likvidlik, foiz stavkalari, bozor va operatsion risklar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, mavjud holat tahlili iqtisodiy o‘zgarishlar va jamiyat ehtiyojlariga muvofiq bank sektorining rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan tizimli muammolar mavjudligini ko‘rsatadi. Bular – bank sohasida davlat ishtirokining yuqori darajasi, davlat banklarida boshqaruv sifati va risklarni boshqarish tizimining sustligi, shuningdek, moliyaviy vositachilik darajasining pastligidir.

Shu boisdan, banklarda IRM – Integrated Risk Management modeli asosida risklarni yagona tizimda baholash va ularni real vaqt rejimida monitoring qilish dolzarb masalaga aylanmoqda. Mazkur yondashuv tezkor va ishonchli moliyaviy qarorlar qabul qilish imkoniyatini oshiradi.

Tijorat banklari kredit riskini quyidagi formulalar asosida baholash orqali vaqt va resurs tejamkorligini ta‘minlaydi. Bu jarayon kredit riskidan kelib chiqadigan potensial zarar miqdorini aniq hisoblash imkonini beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, kredit riskini minimallashtirish yoki kamaytirish uchun quyidagi choralarni amalga oshirish zarur:

- kredit miqdori va garov miqdori hamda sifatining mutanosibligini ta‘minlash;
- mijozlarga kredit ajratish jarayonini soddalashtirish orqali ularga qulaylik yaratish;
- bank resurslarining barqarorligini hamda bank xizmatlari sifatini oshirish;
- bank xodimlarining malaka va kasbiy saviyasini oshirish [10].

Moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, hududiy bank infratuzilmasini rivojlantirish va barcha aholi punktlarida bir xil sifatdagi xizmatlar ko‘rsatishni ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar ko‘rish zarur. Zamonaviy moliyaviy texnologiyalar asosida bank xizmatlarini avtomatlashtirish, axborot xavfsizligini ta‘minlash, shuningdek, inson omilining ta‘sirini minimallashtirishga qaratilgan islohotlarni jadallashtirish lozim [11].

Hozirgi kunda O‘zbekistondagi 31 ta bankdan 13 tasida davlat ishtiroki mavjud bo‘lib, ushbu banklarning kapitali bank tizimi jami aktivlarining 87 foizidan, aktivlari esa 85 foizidan ortig‘ini tashkil etadi. Ushbu tizimni isloh qilish bo‘yicha strategik chora-tadbirlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020–05–12 sanasidagi PF–5992-son Farmonida belgilab berilgan. Unda bank sektorini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari va 2020–2025-yillarga mo‘ljallangan “Yo‘l xaritasi” shaklida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar tasdiqlangan.

Islohotlarning asosiy maqsadi – strategik samaradorlikni oshirish, moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash, davlat ulushini qisqartirish, moliyaviy xizmatlarning sifat va mavjudligini yaxshilashdan iborat. Strategiyada 2025-yilgacha quyidagi natijalarga erishish belgilangan:

1-jadval. O‘zbekiston bank tizimidagi asosiy ko‘rsatkichlar va islohot yo‘nalishlari

Ko‘rsatkich / Islohot yo‘nalishi	Holat (hozir)	Maqsad (2025-yilgacha)
Bank tizimidagi davlat ishtiroki	31 ta bankdan 13 tasi (aktivlarning 85%, kapitalning 87%)	Davlat ulushisiz banklar ulushini 15%dan 60% gacha oshirish
Xususiy sektor oldidagi banklar majburiyatlari	28%	70%
Nobank kredit tashkilotlari ulushi	0,35%	4%
Davlat ishtirokidagi banklar soni	13 ta	Kamida 3 ta bankka xorijiy strategik investor jalb qilish
Banklarda risklarni boshqarish	IRM joriy qilinishi bosqichida	Real vaqt rejimida monitoring

bank tizimidagi aktivlarda davlat ulushisiz banklar ulushini 15 foizdan 60 foizgacha oshirish; banklarning xususiy sektor oldidagi majburiyatlar ulushini 28 foizdan 70 foizgacha yetkazish; davlat ulushi mavjud bo‘lgan kamida uchta bankning ustav kapitaliga xorijiy strategik investorlarni jalb etish;

kreditlashning umumiy hajmida nobank kredit tashkilotlarining ulushini 0,35 foizdan 4 foizgacha oshirish [12].

Bugungi global moliyaviy bozor sharoitida O‘zbekiston bank tizimining raqobatbardoshligi tijorat banklarining investitsion faoliyatini faollashtirishga bog‘liq. Bu esa ularni qimmatli qog‘ozlar bozorida faol ishtirok etishga undaydi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, bank marjasining pasayishiga depozit stavkalarining tushirilishi va kredit stavkalarining o‘sishi o‘rtasidagi nomutanosiblik sabab bo‘lmoqda. Natijada tijorat banklari kredit faoliyatidan qimmatli qog‘ozlar bilan ishlashga o‘tmoqda.

Moliyaviy bozorlarning globallasuvi va xalqarolashuvi sharoitida tijorat banklarining asosiy ustunliklaridan



biri – ularning investitsiyaviy salohiyatini kengaytirish hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida O'zbekiston tijorat banklari xorijiy investorlar uchun tobora jozibador bo'lib bormoqda. Bu nufuzli xalqaro moliyaviy institutlarning O'zbekiston banklariga bo'lgan ishonchining ortib borayotganidan dalolatdir.

Shubhasiz, jahon moliya bozorida O'zbekiston bank sektorining nufuzi oshmoqda. So'nggi yillarda rivojlanayotgan bozorlar, jumladan O'zbekiston iqtisodiyoti ham, xorijiy investorlar e'tibor markazida bo'lib, banklar faoliyatida ularning ishtiroki faollashishi kutilmoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

So'nggi o'n yillik O'zbekiston uchun o'ziga xos "o'zgarishlar davri"ga aylandi. Mamlakatimizda bozorga asoslangan ko'p tuzilmali iqtisodiyotni shakllantirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda kuchli va barqaror rivojlanayotgan bank sektorini yaratish muhim o'rin egallaydi. Mustaqillik yillarida bank sektori monobank tizimidan bozor iqtisodiyoti talablariga mos keladigan zamonaviy bank tizimiga, universal banklar modeliga bosqichma-bosqich o'tdi.

O'zbekistonda zamonaviy bank tizimini yaratish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Bank sektorini liberallashtirish jarayonida keskin choralar emas, balki sifatli va o'z vaqtida islohotlarni amalga oshirishga e'tibor qaratildi.

Hozirgi davrda mamlakatimiz oldida zamonaviy bank infratuzilmasiga ega, samarali faoliyat yurituvchi bank sektorini shakllantirish vazifasi turibdi. Isloh qilinayotgan bank tizimi doirasida banklarni xususiylashtirish, bank kapitaliga xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilish, ularning faoliyatini tijoratlashtirish, tadbirkorlik tuzilmalarining bank moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish hamda omonatchilarning bank tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash orqali moliyaviy erkinlikni kengaytirish ko'zda tutilmoqda.

O'rta muddatli istiqbolda mamlakatimizda bank sektorini rivojlantirish borasida ikkita asosiy strategik vazifa belgilangan. Birinchidan, banklarning moliyaviy barqarorligini oshirish va ichki bozorda moliyaviy xizmatlar turlarini kengaytirish. Ikkinchidan, O'zbekiston banklarining xalqaro kapital bozorlarida faolligini oshirish. Ushbu chora-tadbirlar mamlakatning globallashtayotgan jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashish istagi va tayyorligini namoyon etadi.

Ichki nuqtai nazardan, barqaror banklarning moliyaviy holatini mustahkamlash, muammoli banklarni bozordan chiqarish, bank kapitallashuvi darajasi va kapital sifatini oshirish, bank xizmatlari ko'lamini kengaytirish, shuningdek, banklar va real sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu orqali O'zbekiston bank sektorining rivojlanish ko'rsatkichlarini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish maqsad qilingan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, O'zbekiston bank tizimi oldida murakkab va ko'p qirrali vazifalar mavjud, biroq ularni hal etish bo'yicha mavjud salohiyat va belgilangan islohotlar istiqbollari ijobiy ko'rinmoqda. Shubhasiz, bank tizimining zaruriy rivojlanishi o'z-o'zidan amalga oshmaydi, balki faoliyat samaradorligini oshirish, tizimni erkinlashtirish va zamon talablari asosida isloh qilish orqali erishiladi. Bu esa butun mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlash uchun mustahkam poydevor yaratadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Law of the Republic of Uzbekistan "On Banks and Banking" (new edition) // National Database of Legislation, 2019–11–06, No. 03/19/580/3994; 2020–01–07, No. 03/20/600/0023.
2. Bogdankevich O. A. Organizatsiia deiatel'nosti kommercheskikh bankov: Otvetny na eksamenatsionnye voprosy. Minsk: Tetra Systems, 2012. – 128 s.
3. Ermakov S. L., Yudenkov Yu. N. Osnovy organizatsii deiatel'nosti kommercheskogo banka. Moskva: Knorus, 2019. – 645 s.
4. Tavasiev A. M., Mekhriakov V. D., Larina O. I. Organizatsiia deiatel'nosti kommercheskikh bankov: Teoriia i praktika. Moskva: YURAYT, 2016. – 735 s.
5. Volkov A. A. Upravlenie riskami v kommercheskom banke. Moskva: Omega-L, 2012. – 160 s.
6. Goncharov A. I., Goncharova M. V. Dengi. Kredit. Banki: Uchebnik. Chast 3: Banki. Volgograd: VolgGTU, 2010. – 252 s.
7. Qodirov L. (2024). Tijorat banklari moliyaviy boshqaruv tizimini tashkiliy mexanizmini takomillashtirish. Muhandislik va Iqtisodiyot, 2(4).
8. Norqobilov S., Dadaboyeva X., Jo'rayev U. (2007). Xalqaro amaliyotda bank nazorati: Magistrlar uchun darslik. Toshkent: Iqtisod–Moliya. – 180 b.
9. Ahmedov M. U. (2011). Iqtisod va moliya. Ekonomika va Finanslar, № 10, 47–52 b.
10. Xalimovich K. L. (2024, mart). Commercial Banking Financial Management and Increased Efficiency of Credit Risk Management. In International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies, Vol. 3, pp. 15–18.
11. <https://lex.uz/ru/docs/4811037>
12. <https://www.dentons.com/ru/insights/articles/2020/may/28/strategy-for-the-development-of-the-banking-sector-in-uzbekistan-until-2025>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2025. № 6-maxsus son

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---